



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 25 yil “08-”iyul

№ 203

Toshkent sh.

### Sog'lioni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini Sog'lioni saqlash vazirligi sohasida tatbiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan sohaga oid ichki me'yoriy hujjatlarini qayta tasdiqlash maqsadida, **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

- Sog'lioni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti 2- ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomalarini 5-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomalarini 6-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomalarini 7-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti 10-ilovaga muvofiq;
- Sog'lioni saqlash vazirligida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma 11-ilovaga muvofiq;

- Sog‘lijni saqlash vazirligi xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 12-ilovaga muvofiq;

- Sog‘lijni saqlash vazirligida Korrupsiyaga oid huquqburzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 13-ilovaga muvofiq;

- Sog‘lijni saqlash vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishslash tartibi to‘g‘risida nizom 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2.** Sog‘lijni saqlash vazirligining 2022-yil 1-martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uni oldini olish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 71-sон buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

**3.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘lijni saqlash boshqarmalari, Sog‘lijni saqlash vazirligi tizimidagi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari hamda Respublika davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari, tibbiyot oliy ta’lim muassasalari buyruq bilan tasdiqlangan ichki me’yoriy hujjatlar asosida **1oylik muddatda**:

- ichki me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- har bir xodim kesimida tanishtirish ishlarini tashkil etish;

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda vazirlikning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmasi (S. Mamanov)ga ma’lumot taqdim etilsin.

**4.** Mazkur buyruqning 3-bandida ko‘rsatilgan muassasa va tashkilotlar o‘z bo‘ysunuvidagi quyi muassasa va tashkilotlarida ichki me’yoriy hujjatlar ijrosi bo‘yicha nazoratni doimiy ravishda ta’milasın.

**5.** Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U. Gazieva) Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (S. Mamanov) bilan birgalikda **bir xafka muddatda** statsionar muassasada davolanib chiqqan bemorlarning **qoniqish darajasini aniqlash imkonini beruvchi qisqa savol va javoblar variantlari (so‘rovnomani)** shakllantirib, Raqamlı texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim etsin.

**6.** Raqamlı texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (N. Eshnazarov) Yagona integrator – “Uzincofom” MChJ bilan birgalikda **uch xafka muddatda** statsionar muassasada davolanib chiqqan **bemorning muassasadan chiqish vaqtida uning davolanishdan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatdan qoniqish darajasini DMED mobil ilovasi orqali baholash hamda taklif va e’tirozini bayon etish imkonini yaratsin.**

**7.** Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (S. Mamanov) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (O. Sultonov) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirish, devonxona bo‘limi (Yu. Maxmudova) ushbu buyruq Sog‘lijni saqlash vazirligining tizim tashkilotlariga o‘z vaqtida yetkazilishini ta’milasın.

- 8.** Mazkur buyruqning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



A. Xudayarov